NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Azimova Osiyoxon Adxam qizi
TDTU tayanch doktoranti
Email: azimovaosiyi@gmail.com

AKMEOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING KONFLIKTOLOGIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING MAZMUNI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada “akmeologiya”, “konflikt” tushunchalari, ularning sohalarda o‘rganilishi, madaniyatshunoslikdagi o‘rni, konfliktologik madaniyat va uning tarkibiy tuzilishi masalasi muhokama qilindi. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining konfliktologik madaniyatini rivojlantirishga akmeologik yondashuv hamda ushbu yondashuvning mazmun-mohiyati yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *akmeologiya, yondashuv, akmeologik yondashuv, konflikt, madaniyat, konfliktologik madaniyat, nizo, ixtilof, ziddiyat, o‘qituvchi, o‘quvchi, ta’lim, tarbiya.*

Азимова Осиёхон Адхамовна
Базовый докторант ТГТУ

СОДЕРЖАНИЕ РАЗВИТИЯ КОНФЛИКТОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ НА ОСНОВЕ АКМЕОЛОГИЧЕСКОГО ПОДХОДА

Аннотация. *В данной статье рассмотрены понятия “акмеология”, “конфликт”, их изучение в отраслях, роль в культурологии, вопрос о конфликтологической культуре и ее структуре. Освещается акмеологический подход к развитию конфликтологической культуры будущих учителей начальных классов, а также содержание этого подхода.*

Ключевые слова: *акмеология, подход, акмеологический подход, конфликт, культура, конфликтологическая культура, спор, раздор, разногласие, учитель, ученик,образование, воспитание.*

Osiyokhan Azimova Adkham qizi
PhD student at TSUT

THE DEVELOPMENT OF CONFLICT CULTURE AMONG FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS BASED ON AN ACMEOLOGICAL APPROACH

Annotation: *This article explores the concepts of “acmeology” and “conflict”, their study areas, their significance in cultural studies, conflict culture, and its structural composition. It delves into the acmeological approach towards nurturing conflict culture in future primary school teachers, detailing the content and essence of this approach.*

Keywords: *acmeology, approach, acmeological approach, conflict, culture, conflict culture, issue, quarrel, dispute, teacher, student, education, upbringing.*

Kirish

Jamiyatimiz jadallik bilan taraqqiy etib, iqtisodiy va siyosiy mavqeyi kundan-kunga ortib bormoqda. Bu esa ijtimoiy soha ayniqsa ta’lim-tarbiyaga asoslanganlikda deyishimiz mumkin. Barcha sohalar qatori ta’lim tizimida ham islohotlar olib borilmoqda. Ushbu islohotlar zamirida yosh avlodning tarbiyasi, ta’limni eng ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan. Buning yorqin misolida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 21 iyundagi “Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagogik kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-289-sonli prezident qarorining tasdiqlanishi ta’lim tizimimizni yanada rivojlanishiga xizmat qiladi.[1]

Bugungi kunda erkin fuqoro shaxsini tarbiyalashga bo‘lgan e’tibor yoshlarni ijtimoiy munosabat tomon yo‘llash, tolerantlik, gumanizm, ijtimoiy intellekt, shaxslararo munosabatlarda kommunikativlik kabi sifatlarni shakllantirishga qaratilmoqda. Shunday ekan, yoshlarimizning akmeologik yondashuv asosida konfliktologik madaniyatni shakllantirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan deyishimiz mumkin.

Adabiyotlar tahlili:

Pedagogika ensiklopediyasida akmeologiya tushunchasiga quyidagicha ta'rif berilgan. Akmeologiya (yun. *akme*-yetuklik, cho'qqi, kamolot, yuksalish, (*logos*-ta'limot) shaxsning kasb-hunarni egallashda yuksak cho'qqiga erishishi bilan bog'liq masalalani o'rganuvchi "Akmeologiya" fani haqidagi dastlabki qarashlar XX asrning 20-yillarida vujudga kelgan [5.45-46 betlar].

V.N.Tarasovaning fikriga ko'ra, "akmeologiya" - bu murakkab faoliyat ko'rsatadigan ob'ektlarning sifatli o'zgarishi haqidagi fan va "akme" atamasi o'z-o'zini rivojlantirish predmetiga aylangan ob'ektning intensiv rivojlanishi davrida sifatning eng yuqori namoyon bo'lishini anglatadi [8,318c].

Akmeologik yondashuvlar doirasiga rivojlanayotgan insonning yaxlit hodisa sifatida ob'ektiv borliq bilan o'zaro aloqasi va munosabatlarini o'rganish; har bir ta'lim oluvchining shaxsiy-kasbiy yuksaklikka intilishi, o'z shaxsiy-kasbiy sifatlarini takomillashtirishga erishishi, muvaffaqiyat qozonishi, yetuklik va madaniy saviyasini yuksaltirishi va ma'naviy-axloqiy qadriyatlarga asoslangan holda o'z-o'zini rivojlantirishi natijasida istiqboldagi faoliyatining sifatini ta'minlash; har bir ta'lim oluvchining layoqatlarini e'tirof etish, jamoa a'zolari tomonidan ularning muvaffaqiyatlarini tan olish, to'laqonlilik va o'z ehtiyojlarini qondira olish hissiga ega bo'lish, ijodiy guruhlar bilan hamkorlik qilish imkonini beradigan kommunikativ ko'nikmalar hamda ijtimoiy tajribalarni o'zlashtirish kabilar kiradi [4, 23b].

Akmeologik yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash o'quv jarayonini maqsadga yo'naltirgan holda modellashtirishni talab qiladi. Bunda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarga pedagogik maslahatlar berish, pedagogik treninglar o'tkazish orqali ularni o'quvchilar orasida vujudga keladigan ziddiyatlarni bartaraf etishga tayyorlash pedagogik metodikalari bilan qurollantirish alohida ahamiyatga ega. Chunki, boshlang'ich sinf o'quvchilari o'rtasida yuzaga keladigan nizo, ixtilof va ziddiyatlarni vaqtida oldini olmaslik yomon oqibatlarga olib kelishi mumkin. Bunday paytda pedagogning konfliktologik bilimga ega bo'lishi o'quvchilarimiz o'rtasidagi yuzaga kelishi mumkin bo'lgan konfliktli vaziyatlarni oldini olishga yordam beradi. Bu esa yosh avlodni barkamol akme shaxslar bo'lib yetishiga sabab bo'la oladi deya olamiz.

Bo'lajak mutaxassislar pedagogik faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirishlari uchun quyidagilarga erishishlari lozim:

- pedagogik-psixologik bilimlar;
- o'z predmeti va uni o'qitish metodikasiga oid bilimlar;
- ilmiy dunyoqarash;
- konfliktologik madaniyat.

Shu bilan bir qatorda quyidagi ko'nikma va malakalarni ham egallashlari muhim:

- konfliktologik diagnostika;
- gnostik, ya'ni bilishga oid bilimlarni qo'llash;
- ijodkorlik;
- tashkilotchilik;
- kommunikativ;
- korrektsiyalash;
- loyihalash.

Shunga ko'ra, pedagogik konfliktologiya tadqiqotchilarda alohida qiziqish uyg'otmoqda. Konflikt haqida turlicha qarashlar mavjud.

Konflikt (lot.conflictus-ixtilof, to'qnashuv, nizo, kelishmovchilik) - inson faoliyatining turli jabhalarida sodir bo'ladigan qarama-qarshilik. [6,190-bet].

M.Ahmedovaning "Pedagogik konfliktologiya" nomli o'quv qo'llanmasida "konflikt – o'zaro qarama-qarshi bo'lgan ziddiyatli manfaatlar va munosabatlarning ochiq to'qnashuvi"[2,10] sifatida izohlanadi.

Pedagogika ensiklopediyasida madaniyat tushunchasiga quyidagicha ta'riflangan. Madaniyat (arab. madina - shahar, farovon maskan, taraqqiyot o'chog'i) - jamiyatning ishlab chiqarish, ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy hayotida qo'lga kiritgan yutuqlari majmui; o'qimishlilik, ta'lim-tarbiya ko'rganlik, ziyolilik, ma'rifat.[6,225- bet].

Manbalarda konfliktologik madaniyat turlicha ta'riflanadi. N.V.Kuklevaning ta'kidlashicha, o'qituvchining konfliktologik madaniyati - bu uning hamkorlik faoliyatida ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan natijalarga erishish uchun mojaroni tan olish, uni oldini olish yoki (agar oldini olishning iloji bo'lmasa) konstruktiv hal qilish qobiliyati va tayyorligi [3,56c].

N.V.Samsonovaning fikricha: "Shaxsning konfliktologik madaniyati insonning ijtimoiy: shaxslararo, millatlararo va xalqaro nizolarni oldini olish va hal qilish istagi (ehtiyoj, xohish) va qobiliyatida" [5,45c].

Tadqiqot metodologiyasi

Maqolada akmeologik yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining konfliktologik madaniyatini rivojlantirish masalasi muhokama qilindi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun konfliktologik bilimlarni kerakligi misollar orqali yoritib berildi.

Tahlillar va natijalar.

Bola hayotidagi eng og'ir davr bu boshlang'ich maktab davridir. Ayniqsa 1-sinfga qabul qilingan o'quvchilar bilan ishlash boshlang'ich sinf o'qituvchisidan juda katta kuch talab etadi. Maktab dargohiga endi qadam qo'ygan o'quvchilarda bog'cha va maktab o'rtasidagi farqli tomonlar ularni psixologiyasiga ta'sir qiladi.O'quvchilar o'qituvchisiga moslashish, maktab tartib intizomiga rioya etish, berilgan topshiriqlarni bajarish, yangi jamoaga kirishish kabi emotsional holatlarga duch keladi. Bunday paytda o'qituvchi ularga kerakli yordamni bermasa bolada ichki nizo yuzaga kelishi mumkin.Mana shunday paytlarda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida

konfliktologik madaniyatni rivojlanganligi o‘quvchilarimizda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan konfliktlarni oldini olishga yordam beradi.

Boshlang‘ich sinflarda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan konfliktologik jarayonlarni oldini olish uchun o‘qituvchi quyidagi usullardan foydalanishi mumkin:

✧ **O‘quvchilarni va ota-onalarni tinglash.** Tinglash ota-onalar, va o‘qituvchilarga o‘quvchilarning hissiy va psixologik muammolarini tushunishga yordam beradi. Bu usuldan foydalanish ota-ona va o‘qituvchi hamkorligi talab qiladi. Chunki bola hali o‘qituvchisi haqida to‘laqonli ma’lumotga ega bo‘lmaydi, shu sababli o‘qituvchisiga o‘zida yuzaga kelayotgan holatlar haqida aniq ma’lumot bera olmaydi. Ota-ona farzandidan maktab haqidagi taassurotlarini so‘rab uni diqqat bilan tinglashi va mavjud muammolarni o‘qituvchisi bilan maslahatlashishi o‘quvchilarimizda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan nizoli vaziyatlarni oldini oladi. Tinglash ko‘z bilan aloqa qilishni, diqqatni jalb qilishni va bolaning so‘zlari haqida mulohaza yuritishni o‘z ichiga oladi.

✧ **Rag‘batlantirish.** Rag‘batlantirish boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘ziga bo‘lgan ishonchini shakllantirishga, maktab haqidagi ilk tasavvurlarini ijobiy bo‘lishiga, ilm olishga bo‘lgan qiziqishlari ortishiga yordam beradi.

✧ **Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash.** Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun maktabga moslashishda juda muhimdir. Ota-onalar, o‘qituvchilar o‘yin vaqti, sport va guruh faoliyati kabi ijtimoiy tadbirlarni tashkil etishlari kerak. Ushbu tadbirlar bolalarga ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga va yangi do‘stlik o‘rnatishga va o‘zlariga bo‘lgan ishonchni oshirishga yordam beradi.

Kichik guruh bo‘lib ishlash. O‘quvchi kichik guruh bo‘lib ishlaganda, darsda faol ishtirok etish huquqiga, boshlovchi rolida bo‘lishga, bir-biridan o‘rganishga va turli fikrlarni tinglash va qadrlash imkoniga ega bo‘ladi.

✧ **Individual suhbatlar.** Ushbu suhbatlar davomida o‘qituvchi bola qanday his-tuyg‘ularni boshdan kechirayotganini, yangi vaziyatga qanday munosabatda bo‘lishini va qanday qiyinchiliklarga duch kelishini aniqlay oladi. Bunday suhbatlar natijasida o‘qituvchi bolaga kerakli maslahatlarni berishi va unga yangi maktabga moslashishiga yordam berishi mumkin. Bunday suhbatlar o‘quvchilarda muloqot madaniyatini shakllanishiga yordam beradi.

Xulosalar.

Xulosa qilib aytganda, amaliy kuzatishlarimiz, pedagogik va ijtimoiy madaniy tajribalarimiz shuni ko‘rsatmoqdaki, bo‘lajak mutaxassislarda konfliktologik madaniyatni rivojlantirish asosida ularni akme pedagog qilib tayyorlashimiz mumkin. Buning uchun bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining konfliktologik madaniyatini to‘laqonli rivojlanishini oliy ta’lim jarayonining dastlabki bosqichidanoq boshlash talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 21 iyundagi “Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagogik kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-289-sonli qarori.

2.Axmedova M.T. Pedagogik konfliktologiya: O‘quv qo‘llanma. – T.: Donishmand Ziyosi, 2020. – B. 306.

3.Куклева Н.В. Формирование конфликтологической компетентности студентов университета, получающих дополнительную квалификацию «преподаватель». – Ставрополь, 2006. – С. 10.

4.Ma’murov B.B. Bo‘lajak o‘qituvchilarda akmeologik yondashuv asosida ta’lim jarayonini loyihalash ko‘nikmalarini rivojlantirish: ped. fanl. dokt. diss. – T.: 2018, – 264 b.

5.R.Safarova. Mas’ul muharrir Pedagogika ensiklopediya. I jild. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent-2015. 320 bet

6.R.Safarova. Mas’ul muharrir Pedagogika ensiklopediya. II jild. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent-2015. 377 bet].

7.Самсонова Н.В. Конфликтологическая культура специалиста и
технология ее формирования в системе вузовского образования: Монография. – Калининград, 2002. – С. 12

8.Тарасова В.Н. Методологические основы акмеологического подхода к повышению качества образовательного процесса // Акмеология 97, научная сессия. - Под ред. Н. В. Кузьминой, А.М.Зимичева. - СПб.: Санкт- Петербургская Акмеологическая Академия, 1997. - 318с].